

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HISOB PALATASI FAOLIYATI TAKOMILLASHTIRILAYOTGANLIGI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 6-iyulda qabul qilingan

Senat tomonidan 2021-yil 31-iyulda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O'RQ-360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, 12-songa 1-ilova; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 10, 605-modda, № 12, 772-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda, № 7, 431, 433-moddalar, № 12, 783-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 5, 265-modda, № 8, 470-modda, № 9, 588-modda, № 11, 791-modda, № 12, 884, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 203-modda, № 11, 652-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 7, 13-moddalar, 4-songa ilova) 174-moddasining **beshinchi xatboshisidagi** "zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

2-modda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida"gi O'RQ-546-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 7, 384-modda, № 9, 588-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 4-modda:

to'rtinchi xatboshisi quyidagi mazmundagi to'rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan almashtirilsin:

"davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

udget jarayonining ochiqligini ta'minlash tartibiga riosa etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

udget tizimi budgetlariga va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarga mablag'lar tushumlarining to'liqligini, shuningdek yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan choralarining amalga oshirilishini o'rganish hamda nazorat qilish";

beshinchi — o'n birinchi xatboshilar tegishincha yettinchi — o'n uchinchi xatboshilar deb hisoblansin;

o'n ikkinchi xatboshisi

quyidagi mazmundagi o'n to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va topshiriqlari to'liq hamda o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish";

quyidagi mazmundagi o'n to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"davlat boshqaruvi organlarida, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan muassasa va tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tizimini joriy qilishga, shuningdek uning samarali faoliyat ko'rsatishiga doir choralarining amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish";

2) quyidagi mazmundagi 21¹ va 21²-moddalar bilan to'ldirilsin:

"21¹-modda. Hisob palatasining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish sohasidagi funksiyalari

Hisob palatasi davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish sohasida:

davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka riosa etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshiradi;